

Journal of Social Research in Uzbekistan

INDUSTRIAL CITIES OF THE TASHKENT ECONOMIC REGION AND ITS ROLE IN THE NATIONAL ECONOMY OF THE REPUBLIC

Zamira Toirova

Doctoral Student

Mirzo Ulugbek National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: economic district, knitwear, shoes, electrochemical plant, collector waters, creamery, bakery, biochemical plant, reinforced concrete structures, brick factory, cotton gin, flour mill, cannery.

Received: 16.12.24

Accepted: 18.12.24

Published: 20.12.24

Abstract: The article, based on archival documents and extensive literature, pays special attention to the industrial cities of the Tashkent economic region and its place in the national economy of the republic. The article analyzes the activities of large industrial, transport, scientific and cultural centers in the small and medium-sized cities of Charvak, Gazalkent, Pskent, Toitepa, Chinoz, Almazar, Keles, Narimanov of the capital Tashkent, which is the core of the first industrial district.

TOSHKENT IQTISODIY RAYONINING SANOAT SHAHARLARI VA UNING RESPUBLIKA XALQ XO'JALIGIDAGI O'RNI

Zamira Toirova

Doktorant

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalir so'zlar: iqtisodiy rayon, trikotaj, poyafzal, elektrokimyoviy kombinat, kollektor suvlar, yog' moy zavodi, non kombinatlari, bioximiya zavodi, temir beton konstruksiyalari, g'isht zavodi, paxta tozalash zavodi, un zavodi, konserva zavodi.

Annotatsiya: Maqolada arxiv hujjatlari va keng adabiyotlar asosida Toshkent iqtisodiy rayonining sanoat shaharlari va uning respublika xalq xo'jaligidagi o'rniga alohida e'tibor qaratilgan. Maqolada birinchi sanoat rayonining yadrosi poytaxt Toshkent shaxri bo'lib, uning tarkibiga kirgan Chirchiq, Yangiyo'l sanoat tugunlari hamda Chorvoq, G'azalkent, Pskent, To'ytepa, Chinoz, Olmazor, Keles, Narimonov kabi kichik va o'rta shaharlarining yirik sanoat, transport, ilmiy va madaniy markazlari faoliyati tahlil etilgan.

ПРОМЫШЛЕННЫЕ ГОРОДА ТАШКЕНТСКОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЙОНА И ЕГО РОЛЬ В НАРОДНОМ ХОЗЯЙСТВЕ РЕСПУБЛИКИ

Замира Тоирова

Докторант

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экономический район, трикотаж, обувь, электрохимический комбинат, коллекторские воды, маслозавод, хлебокомбинат, биохимический завод, железобетонные конструкции, кирпичный завод, хлопкоочистительный завод, мукомольный завод, консервный завод.

Аннотация: В статье, основанной на архивных документах и обширной литературе, особое внимание уделяется промышленным городам Ташкентского экономического района и его месту в народном хозяйстве республики. В статье проанализирована деятельность крупных промышленных, транспортных, научных и культурных центров в малых и средних городах Чарвак, Газалкент, Пскент, Тойтепа, Чиноз, Алмазар, Келес, Нариманов столицы Ташкент, которая является ядром первого промышленного района.

Toshkent iqtisodiy rayonida sanoat markazlarining hududiy joylashuvida joylashuvida iqtisodi bo'yicha bir biridan farq qiladigan ikki gruppaga yaqqol ko'zga tashlanadi. Bular Shimoliy yoki Toshkent sanoat rayoni va Sharqiy yoki Angren Olmaliq sanoat rayolaridir. Birinchi sanoat rayonining yadrosi poytaxt Toshkent shaxri bo'lib, uning tarkibiga Chirchiq, Yangiyo'l sanoat tugunlari hamda Chorvoq, G'azalkent, Pskent, To'ytepa, Chinoz, Olmazor, Keles, Narimonov kabi kichik va o'rta shaharlar (sanoat markazlari va punktlari) kirdi. Toshkent sanoat rayonida, asosan, ishlab beruvchi sanoat tarmoqlari ishlab turdi. Ikkinchi sanoat rayoni Angren Olmaliqda asosan undiruvchi sanoat yetakchi rol o'ynadi. Bu sanoat rayonning yadrosini Olmaliq va Angren sanoat tugunlari tashkil qildi. Bu gruppaga, shuningdek, Ohangaron, Yangiobod kabi shaharlar ham kirdi. Bekobod sanoat tuguni bu ikkala sanoat rayonidan bir oz o'zoqda, oblastning janubida joylashgan.

Tadqiq etilayotgan mavzu doirasida tadqiqot ishlari olib borgan geograf hamda iqtisodchi olimlar respublikadagi iqtisodiy rayonlar to'g'risida bir qator ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ular Farg'ona iqtisodiy rayoni haqida ham alohida to'xtalib, "...bu rayonning ko'pgina boshqa sanoat tarmoqlari paxtachilik kompleksi bilan bog'liq bo'lib, uning ehtiyojlari uchun mahsulot chiqarilganligini, jumladan, mashinasozlik korxonalari paxtachilik uchun zarur bo'lgan mashinalar hamda ularning ehtiyot qismlarini, irrigatsiya-melioratsiya ishlari uchun zarur bo'lgan mashina-uskunalarini ishlab chiqarsa, kimyo sanoatida mineral o'g'itlar ishlab chiqarilgan" – deb ta'kidlab o'tadilar [1: 201-202].

Geograf olimlar N.N.Nekrasovning hududiy ishlab chiqarish haqidagi nazariy qarashlarini davom ettirib, "boshqacha aytganda, sanoatning turli tarmoqlariga xos korxonalar ularning ishlashi

uchun qulay bo'lgan territoriyalarga joylashtiriladi. Turli aholi punktlaridagi va rayonlaridagi sanoat korxonalari bir-biriga uskuna, xom ashyo, yarim fabrikatlar yetkazib berish yo'li bilan aloqa qiladi [1:118-119]" – deb yozadilar.

Sh.Zokirov esa "O'zbekiston sanoatining rivojlanish yo'llari sotsialistik asosda joylashtirilishi korxonalarni xom ashyo manbalariga yaqinlashtirishga, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, paxtachilik, sanoat, energetika bazasi vujudga keltirilgani, foydali qazilmalar sanoat jihatidan o'zlashtirilgani, respublikada binokorlik materiallari bazasi vujudga keltirilganligi, yordamchi ishlab chiqarishlar-ta'mirlash korxonalari, chigitni qayta ishlaydigan korxonalar va boshqalar tashkil etilgani kabi yutuqlarga olib kelganligini" - ta'kidlab o'tadi [26:23]. Shuningdek, muallif, "sanoat korxonalarining vujudga keltirilishi va sanoatning xuddi ana shu yo'l bilan rivojlantirilishi rejali, proporsional rivojlanish qonuni talablarining amalga oshuvini ta'minladi" – deb yozadi.

Toshkent shahrining 1984 yilda 2 mln. kishi tashkil etgan. O'rta Osiyoning eng yirik sanoat, transport, ilmiy va madaniy markazi bo'lgan. U O'zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri bo'lib, shahar respublika va Toshkent iqtisodiy rayonining shimoli sharqiy qismida, Chirchiq daryosi vodiysida, dengiz satxidan 440 480 m balandlikda joylashgan. Maydoni 250 km² bo'lib, mamlakatimizning eng katta shaharlaridan biri, shahar o'nta ma'muriy rayonga bo'lingan. Sovet hokimiyati yillarishaharda xozir 408 ta sanoat birlashmalari va korxonalari ishlab turdi. Ana shu korxonalarda respublika sanoat maxsulotining 1\4 qismi ishlab chiqarildi. Toshkentda, asosan, shahar qurulishi uchun maxsulot ishlab chiqaradigan ikkita uysozlik kombinati, temir beton konstruksiyalari va detallari zavodi, g'isht zavodlari, qoplama bezak va quyosh nuridan saqlash moslamalari zavodi va boshqa korxonalar ishlab turibdi. Yengil sanoat o'z salmog'i va ahamiyati bo'yicha shahar sanoatida ikkinchi o'rinni egalladi. Bu yerda respublikada ishlab chiqariladigan ip gazlamalarning ustki trikotaj, tayyor kiyimlar, poyafzalning ancha qismi tayyorlanadi. Sohaning yirik korxonalari, to'qimachilik kombinati, qator tikuvchilik fabrikalari, trikotaj firmasi, poyafzal korxonalari, kanop fabrikasi, ko'n zavodi. Oziq – ovqat sanoati ahamiyati bo'yicha og'ir va yengil sanoatlardan keyin uchinchi o'rinda turadi. Yirik tarmoqlari va korxonalari: yog' moy kombinati, konserva zavodi, shampan vinolari kombinati, vino pivo, alkogolsiz ichimliklar zavodlari, tegirmon, go'sht, sut, konditer va tamaki fabrikalari, non zavodlari va boshqalar. Shaharda aholi uchun ko'plab iste'mol mollari ishlab chiqaradigan pardoz buyumlari fabrikasi, grammofon plastinkalari zavodi, zargarlik buyumlari, milliy mo'zika asboblari, mebel fabrikalari, chinni zavodi, badiiy buyumlar fabrikasi kabi korxonalar bor.

Toshkent yirik transport tugunidir. Asosiy temir yo'llar: Toshkent Orenburg Moskva, Toshkent Krasnovodsk, Toshkent Namangan – Andijon, Toshkentdan Angren va Chorvoqqa ham temir yo'l tarmoqlari qurilgan. Shahar mamlakatimizning Sharqdagi eng yirik xavo transporti darvozasi hamdir.

Bu yerdan Dexli, Xanoy. Qobul va Sharqdagi boshqa mamlakatlarning poytaxtlariga boradigan xavo yo'llari o'tadi. U Moskva, ittifoqdosh respublikalar poytaxtlari, yirik shaqharlar, yirik kurort rayonlari bilan doimiy havo transporti orqali bog'langan. Toshkent yirik avtomobil yo'llari tuguni hamdir. Undan respublikaning va O'rta Osiyoning turli tomonlariga muhim avtomobil magistrallari boshlanadi.

Ma'lumotlarga ko'ra respublika sanoatidagi eski asbob-uskunalarini yangisi bilan almashtirish muddatlari 1965-1970 yillar ichida ammortizatsiya me'yoridan taxminan 2,5 baravar past, rangli metallurgiyada 6-7 baravar, mashinasozlikda 3 marta, kimyo sanoatida 3-4 baravar kam bo'ldi [3:131]. Toshkent shahrida metallga ishlov berish zavodlarida suvlar tozalanmadi, chang siklonlari atmosferaga tashlab kelindi, Chirchiq shahridagi elektroximprom zavodi, Xilkovski sement zavodi, O'zbek metallurgiya zavodlarida changlarni haydash, quritish, filtrlash tizimlari va tozalash qurilmalari yetishmadi [4]. Sanoat korxonalari texnikalaridagi tanqislik holatlari tez orada atrof-muhitga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Masalan, Toshkent shahrining o'zida Novomixaylovsk nomidagi mexanika zavod, Jumabozor, Soldatskiy, Ketmontepa zavodlari biologik tashlama suvlarini yer maydonlariga tashlab keldi [5]. Sanoat korxonalarida suvlarni tozalash filtrlar yetishmaganligi sababli, chiqindi tashlama suvlarini oqizib ketish kanalizatsiya tizimlari yo'qligi bois, ochiq yer maydonlariga tashlanishi, tuproqning sifatini o'zgartirdi.

Chirchiq shahri 146 ming kishi aholisining soni, sanoat mahsulotlarining xajmi bo'yicha, faqat Shimoliy sanoat rayonida emas, balki butun Toshkent iqtisodiy rayonida poytaxtdan keyin ikkinchi o'rinni egalladi. U dastlabki sovet besh yilliklari davrida (1934 yirik gidro-energiya resurslarini ishga solish, ximiya kombinati qurilishi munosabati bilan). Chirchiq daryosining o'ng sohilida bir necha kichik qishloqlar o'rnida bunyod etilgan. Endilikda u respublikaning muhim sanoat shaxarlaridan biri. Chirchiq korxonalarida mineral o'g'itlar, qiyin eriydigan va o'tga chidamli metall qotishmalar, qishloq xo'jalik mashinalari uchun komplekt uskunalar, elektr transformatorlar, kompressorlar, ximiya sanoati uchun mashina va uskunalar, temir – beton maxsulotlari, qurulish materiallari, kiyim kechak, poyafzal va ko'plab boshqa mahsulotlar ishlab chikarildi. Shaharning eng yirik korxonalari qatoriga elektroximiya kombinati, "O'zbekximmash", "Chirchiqselmash", transformator zavodlari, kaprolaktam ishlab chiqarish birlashmasi [6:43] va b.kirdi.

Ikkinchi jahon urushi yillariga qadar Toshkent viloyatining sanoat markazlaridan bo'lgan Chirchiq shahrida metalni qayta ishlash va sanoat qurilishi mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalari mavjud edi. Ikkinchi jahon urushi yillari O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan korxonalardan eng katta metallga ishlov berish zavodlari ham Chirchiq, Quvasoy va Bekobod shaharlariga joylashtirildi [7:121]. 1940 yilga kelib birgina Chirchiqda turli tarmoqli korxonalar soni 12 taga, 1950 yilga kelib sanoat korxonalar soni 20 taga yetdi [8:52]. 1940 yilda ishga tushirilgan Chirchiq elektrokimyoviy kombinati O'zbekistonning to'ng'ich kimyo sanoat korxonasi hisoblandi. Chirchiq elektrokimyoviy

kombinati respublika qishloq xo'jaligi uchun azot o'g'it-lari, karbomid, uglerod gazi, uglekislota, quruq muz, kimyoviy mahsulotlarni yetkazib berdi[9:63]. 1947 yilga kelib, Chirchiq elektrokimyoviy kombinatiga markazdan mutaxassis - kadrlarning yuborilishi, texnik uskunalar bilan korxonani ta'minlanishi ishchilarning ishlash jarayoniga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatdi. Natijada, Chirchiq elektrokimyoviy kombinatida ishlab chiqarish hajmi 1945 yilga nisbatan 60 foizga ortdi [10:62]. 1950 yilda Chirchiq elektrokimyoviy kombinatiga gazgenerator tizimlarining yo'lga qo'yilishi, korxona quvvati va ishlab chiqarish hajmini ortishiga olib keldi. 1957 yilda korxonaga qo'shimcha faollashtirish sexlari qurila bosh-ladi va serovodorod ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Tejamkor elektro-energetika bilan ta'minlash maqsadida Chirchiq shahriga Doneskiy va Kuzbass sun'iy suv havzalari qurildi. Natijada, Chirchiq kimyo sanoati Ittifoqning eng kuchli va yetakchi kimyo kombinatlari qatoriga kirdi.

1955 yil Chirchiqda oyna, metall buyumlari ishlab chiqaruvchi zavodlar qurildi. Chirchiq shahriga kimyo, neftni qayta ishlash, tog'-kon, paxta tozalash va ko'mir sanoat korxonalari joylashtirilishi shaharni sanoat markaziga aylantirdi. 1957 yilga kelib Chirchiqda Chirchiq elektrokimyo-sanoat, Chirchiq gidroazot, Chirchiq gidrokimyosanoat, oyna va qurilish mahsulotlari ishlab chiqaruvchi bir qator kimyo korxonalari ishlab turdi [11:52].

Biroq, 1950 yilda Toshkent viloyati Chouli va Salar ariqlari sanoat korxonalarining chiqindilaridan jiddiy ifloslandi. Ariqlarning atro-fida istiqomat qilib kelgan aholi orasida o'tkir ichak kasalliklarning avj olishi, 60-65 foizi aholi oshqozon, o'tkir ichak kasalliklari bilan og'rib kelishiga sabab bo'lgan [12]. Daryo suvi tarkibidagi zaharli kimyoviy moddalar tabiatdagi barcha tirik mavjudotlarni ham nobud bo'lishiga, o'simliklarni qurib borishi, uy hayvonlarining yem-hashak mahsulotlarini zaharlanishiga olib bordi[13:2]. Chirchiq sanoat korxonalarining chiqindilari atrof-muhitga yetkazgan zararlari yillar davomida ortib bordi. Markaz kimyo korxona-larining tabiatni muhofaza qilish tizimlaridagi texnik ta'minotiga o'z vaqtida e'tibor qaratmadi. Nosoz tozalash inshootlarining ta'minoti uchun yetarli mablag'lar ajratilmadi.

Chirchiq sanoat korxonalarining mahsulotlari Sovet Ittifoqining barcha respublikalariga va 38 ta chet mamlakatga chiqariladi. Chirchiqda 5 ta ilmiy tadqiqot va loyixa konstruktorlik korxonalari, Toshkent politexnika institutining kechki bo'limi, bir necha o'rta maxsus va professional texnika o'quv yurtlari, maxsus va umumiy ta'lim maktablari, madaniyat muassasalari bor. 1969 yilda ham Chirchiq shahri sanoat korxonalari chiqindilarni tozalash texnik uskunalar bilan ta'mirlanmadi, filtrlari, uskunalari yetishmay, mavjudlari ham umuman ishlamay qolgan[14]. Tozalash inshootlaridan o'tmagan chiqindilar havoga chiqarilib, aholi orasida turli kasalliklar kuchayib ketdi. Chirchiq shahri aholisi orasida tish yemirilishi, tishlarning erta tushishi, o'pka va oshqozon osti bezlarida kasalliklari soni 1968 yilga nisbatan 3-10 baravarga ortishiga sabab bo'ldi[15].

O'pka bilan kasallanishlar qishloq aholisiga qaraganda shahar markazlarida yashovchi aholida yuqori darajada bo'lib keldi. Sanoat korxonalari bir-biriga zich joylashgan shaharlarda atmosfera havosining ifloslanishi hayvonlar, qushlar va o'simliklarning nobud bo'lishiga ham sababchi bo'ldi. Sanoat korxonalarining tashlama suvi va chiqindi changgi davlatdagi asalari, qo'ylar, chorva mollariga va uy hayvonlarining yoppasiga kasallanishiga olib keldi. Shunday ayanchli xududlardan biri bo'lgan Surxondaryo viloyatida ham tabiatidagi o'zgarishlar uning iqtisodiy sohalariga keskin ta'sir etdi. Markaz boshqaruvida ko'plab ilmiy-texnik imkoniyatlardan foydalanishning cheklanishi, zudlik bilan besh yillik rejalarni bajarilishini talab qilinishi, sanoat korxonalarida yaxshi boshqarish tizimiga ega bo'lmasligi sanoat korxonalarida iqtisodiy inqirozlarni yuzaga keltirdi [16:30].

O'zbekistonda kimyo sanoat korxonalarida ishlab chiqarish mahsulotlar hajmini yildan-yilga keskin ortib bordi. Kimyo sanoat korxonalarida ta'mirlash ishlarini tez-tez amalga oshirish talab qilinar edi, lekin, O'zbekiston sanoati uchun ajratilgan mablag'lar buni qoplay olmas edi. Kimyo sanoati yillar davomida zaharli chiqindilarni atmosferaga, chiqindi suvi tuproq va yaqin ariqlarga tashlandi. Afsuski, ekin maydonlariga yig'ilib borgan kollektor suvlari tarkibida Chirchiq shahrida joylashgan bircha sanoat korxonalari chiqindi suvi mavjud bo'ldi. Kollektor suvning to'plangan ko'lmaklari Chirchiq daryosi va kanallarga tashlanib kelindi.

O'zbekistonda kimyo sanoati rivojlanganligini, ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda bu sohani rivojlantirishga alohida e'tibor berilganligini ta'kidlash lozim. KPSS MQ va SSSR Ministrlar Sovetining 1963 yil 18 iyundagi xati asosida 1963 yil 15 iyulda O'rta Osiyo respublikalari rahbar xodimlari, tashkilot, korxonalar rahbarlarining yig'ilishi bo'lib o'tadi. Unda O'rta Osiyo respublikalarida sanoat, qurilish, transport sohalarini rivojlantirish masalalari bilan birga kimyo sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Binobarin bu yillarda kimyo sanoati korxonalarida ham asosan O'zbekiston SSR va Turkmaniston SSR hissasiga to'g'ri kelgan edi [17:81].

Bundan tashqari, Chirchiq daryosining suvi tarkibida neft mahsulotlari, og'ir metall turlari ham me'yoridan ortiq bo'lgan. Bularning barchasi sanoat korxonalarida chiqindi suvning tozalash filtr uskunalarining eskirgani va yetishmasligi sabab bo'ldi. Chirchiq daryosida to'planib borgan chiqindi uyumlari tarkibi kimyo va qurilish (beton, sement, g'isht) mahsulotlari bo'ldi. Buning natijasida, daryo o'zanidagi tabiat jonzoatlari va atrofidagi o'simliklar dunyosiga jiddiy zarar yetgan. Chirchiq kimyo sanoat korxonasining paxta maydonlari hosildorligi ham chetlab o'tmadi. O'ta zaharli kimyoviy chiqindi suvi tuproq sifatini ham o'zgartirgan. Toshkent viloyatining 15 foiz paxta ekin maydonlari tuproq eroziyasi kasalligiga chalingan. Tuproqning marganes, xrom, nikel elementlari bilan ifloslanishi tuproqdagi tiriklik muhitini izdan chiqargan. Ekologik tanglikka befarq qaray olmagan Respublikaning olim va ziyoli vakillari Ittifoq organlariga bir necha bor murojaat qilib, kimyolashtirishni bir muncha kamaytirilishini talab qildi. Biroq markaz bu iltimoslarni inobatga olmadi. Aksincha, 1975 yilga kelib, paxta maydonlarini kimyolashtirish jiddiy ravishda

ko'paytirildi. Sobiq Ittifoq bo'yicha 467 ta sobiq qishloq xo'jalik aerodromlarida zaharli kimyoviy moddalar bilan ifloslantiruvchi hududlar turkumi mavjud bo'lib, ular orasiga Andijon viloyati [18:31] ham kiritilgan edi. Bu aerodromdagi zaharli kimyoviy moddalar tuproqning zaharlanish darajasini yildan yilga oshirib borgan. Sanoat korxonalarining tabiatga keltirilgan zararini oldini olish borasidagi chora-tadbirlar amalda bajarilmay kelingan. Chirchiq shahrining atmosfera havosida ammiak konsentratsiyasi - 2.2 dan 3.8ga baravarga ortgan, formaldegida - 0.3dan 0.7 baravarga, fenol - 0.7 dan 1.3 baravarga, uglerod oksidi - 0.3dan 0.7 baravarga, dvuoksidi – seri - 2.2dan 2.4 barovarga va changlar miqdori PDKsi 2 barobarga ortadi [19].

Yangiyo'l shahri 67 ming kishidan iborat bo'lgan. Toshkentning janubi-g'arbida joylashgan. Shimoliy yoki Toshkent sanoat rayonidagi sanoat markazlaridan biri. Yengil va oziq ovqat sanoatlari rivojlandi. Mebel, poyabzal fabrikalari, yog' moy, non kombinatlari, bioximiya zavodi, temir beton konstruksiyalari, g'isht, paxta tozalash, un, vino konyak, konserva, konditer xamirturish zavodlari va boshqa korxonalar shahar sanoatining negizini tashkil qiladi. Toshkent iqtisodiy rayonining Sharqiy yoki Angren Olmaliq sanoat rayonidagi eng yirik sanoat markazlari Angren va Olmaliq shaharlaridir.

O'rta Osiyo iqtisodiy rayoniga O'zbekiston SSR, Qirg'iziston SSR, Tojikiston SSR va Turkmaniston SSR respublikalari kirgan edi. O'zbekiston SSR mana shu iqtisodiy rayonlar orasida o'z o'rniga ega bo'lib, maydonining hajmi jihatidan Katta O'rta Osiyo iqtisodiy rayonini tashkil etgan respublikalar orasida Turkmaniston SSRdan so'ng ikkinchi o'rinda turdi. O'zbekiston xususan, Toshkent shahrining mamlakat iqtisodiy rayonlaridagi o'rni katta bo'ldi. Biroq, bu yetishtirilgan xom ashyo umumitifoq manfaatlariga xizmat qildi. O'zbekiston xalq xo'jaligi mamlakat halq xo'jaligining asosiy tarmoqlari sifatidagi o'rnini mustahkamlab boraverdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984. – 201-202 б.
2. Зокиров Ш. Ўзбекистон халқ хўжалиги ва унинг бутуниттифоқ меҳнат тақсимоотида тутган ўрни. – Тошкент: “Қизил Ўзбекистон”, “Правда Востока”, “Ўзбекистони Сурх” бирлашган нашриёти, 1960. – 23 б.
3. Ўзбекистон саноати структурасидаги прогрессив силжишлар. – Тошкент: Фан, 1974. – Б.131.
4. Ўз МА Р-837-фонд, 33-рўйхат, 6583-йиғма жилд, 8-варақ.
5. Ўз МА. Р-2742-фонд, 1-рўйхат, 937-йиғма жилд, 73-варақ.
6. Асанов. Г.Р., Набихонов М. Ўзбекистон ССРнинг иқтисодий ва социал географияси. - Тошкент. Ўқитувчи, 1984. 43 бет.

7. Ульмасбаев Ш. Промышленное развитие Советского Узбекистана. –Ташкент: 1958. –С. 132.; Хаджаев С, Савченко П. Минеральные, топливные ресурсы Узбекистана и экономика их использование. –Ташкент: Фан, 1972. –С. 121.
8. История новых городов Узбекистана. –Тошкент: Фан, 1976. –С. 52.
9. Зотов А, Раимов Т и другие. Города Узбекистана. –Ташкент: Узбекистан, 1965. –С. 63.
10. Чирчик- город большой химии. –Ташкент: Государственный издательство Узбекской ССР, 1962. –С. 62
11. История новых городов Узбекистана. –Ташкент: Фан, 1976. –С. 52.
12. Ўз МА. Р-837-фонд, 33-рўйхат, 6564-йиғма жилд, 16-варақ.
13. E.Dupouya, M.Gurinovic. Sustainable food systems for healthy diets in Europe and Central Asia: Introduction to the special issue. Food Policy 96.2020. –P.2.
14. Ўз МА. Р-2742-фонд, 1-рўйхат-1,87-йиғма жилд, 15-варақ.
15. Ўз МА. Р-2742-фонд, 1-рўйхат-1,87-йиғма жилд, 16-варақ.
16. Team for the preparation of the Central Asia Human Development Report. Slovak Republic. 2005. – P. 30.
17. Развитие и размещение производительных сил СССР. ...- С. 81.
18. Оксенгендлер Г. Химические аварии и природа. – Москва, 1992. № 2. – С.31.
19. Воздух и вода в июне // Правда Востока 1989 йил 26 июнь.